

**“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining  
2-son qarori**

2023-yil 10-aprel

Toshkent shahri Shayxontohur  
tumani Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

**KUN TARTIBI:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktyabrdagi PQ-388-son qarori talablarini tegishlilik bo‘yicha ko‘rib chiqish.

**Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:****

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son qarori, Davlat mulkini sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha davlat komissiyasining 2021-yil 5-oktyabrdagi 20-son yig‘ilishi bayoni (01-02/1-1985-son, 11.10.2021-yil) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-oktyabrdagi PQ-388-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Farg‘onaazot” AJning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlari bo‘yicha olingan sof foydasi taqsimlangandan so‘ng Jamiyat ustav kapitalidagi “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli har birining nominal qiymati 2 530,0 so‘m bo‘lgan, umumiy nominal qiymati 41 629 581 400,0 so‘mlik, 16 454 380 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya paketi 233 173 099 332,0 so‘m balans (qoldiq) qiymatida Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga keyinchalik sotish uchun o‘tkazilsin.

3. “Farg‘onaazot” AJ ustav kapitalidagi “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli oddiy aksiya paketini, shuningdek Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tegishli aksiya paketlarini sotishdan tushgan jami mablag‘larning teng yarmi, ushbu aktivlarni sotish bilan bog‘liq Davlat aktivlarini boshqarish agentligining xarajatlarini chegirgan holda, Kimyo sanoati tashkilotlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga o‘tkazilishi ta’minlansin.

4. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi v.v.b. (Korjikov) o‘tkazilgan aksiya paketi bilan bog‘liq zarur hujjatlarni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin hamda jamiyatning yagona aksiyadoriga kiritisin.

*Qaror rasmiylashtirilgan sana: 10.04.2023-yil*